

ADABIYOTLAR

1. Salimov, X.S., A.A. Qambarov, and I.X. Salimov. «Epizootologiya va infeksiyon kasalliklar.» Darslik Toshkent-2020 yil.
2. Хакимов Шорасул, and Илхом Салимов. «Эпизоотология инфекционно-некротического гепатита овец.» Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности 1.1 (2022): 195-198.
3. Ҳақимов, Ш., and И.Х. Салимов. «Инфекцион некротик гепатит касаллигини клиник белгилари» Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali 2.5 (2023): 62-64.
4. Салимов, Илхом Хайтович. Ҳақимов Шорасул. «Қўйларни инфекцион некротик гепатит касаллиги эпизоотологияси» ветеринария фанининг истиқболлари ва унинг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашдаги ўрни 1-қисм (2022): 195.
5. Salimov, Ilkhom, et al. «Specific prevention of emphysematous carbuncle of cattle and sheep.» BIO Web of Conferences. Vol. 95. EDP Sciences, 2024.
6. Ilkhomovich, Klichov Odil, and Salimov Ilkhom Khaitovich. «Infectious Anaerobic Enterotoxemia Disease of Sheep.» Central Asian Journal of Medical and Natural Science 4.3 (2023): 99-105.
7. Тураев, Ш. К., and И. Х. Салимов. «Қорамолларни қорасон касаллигига диагноз қўйиш.» Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali 2.11 (2023): 5-8.
8. Ilkhomovich Klichov Odil, Khakimov Shorasul and Salimov Ilkhom Khaitovich. «Infectious Enterotoxemia Disease of Sheep Epizootology.» Web of Scholars: Multidimensional Research Journal 1.7 (2022): 70-73.
9. Салимов, И. Х., Д. И. Салимова, and Р. М. Уракова. «Изучение клинических признаков и патологоанатомических изменений при экспериментальном браздоте овец.»
10. Ergashev N.B., Mengliyev G.A., Salimov I.X. “Qo‘ylarning bradzot kasalligiga qarshi nomdosh vaksinalarning immunogenligini laboratoriya sharoitida taqqoslab o‘rganish” “Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 22-23 fevral Samarqand-2024. Veterinariya meditsinasi jurnali. Maxsus son 1. 161-163 bet.

UO‘T: 636:933.2.036

TURLI BARRA TIPIDAGI KO‘K RANGLI QO‘CHQOR VA SOVLIQLARNING EKSTERYER KO‘RSATKICHLARI

Ismatov Ulug‘bek Maxmudovich, mustaqil izlanuvchi

Bazarov Soli Raxmatovich, q.x.f.d., professor

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Maqolada turli barra tipidagi ko‘k rangli qo‘chqor va sovliqlarning eksterer ko‘rsatkichlari o‘rganilgan bo‘lib, seleksiya-naslchilik ishlarini poda tarkibida takomillashtirish, naslli qo‘chqorlarni tanlashda eksterer o‘lchamlarini hisoblab chiqish va ushbu ma‘lumotlar evaziga naslli qo‘chqorlarni tanlash va poda tarkibini yaxshilash, turli barra tipli sovliqlarning eksterer ko‘rsatkichlarini barra tiplariga bog‘liqligini o‘rganish asosida ulardan olinadigan avlodlar sifatini yaxshilashga qaratilgan. Oxirgi yillarda qorako‘l zoti qo‘ylari jussasining kichrayib ketishi ular bilan seleksiya-naslchilik ishlarini eksterer ko‘rsatkichlarini rivojlantirish yo‘nalishida olib borishni taqozo etadi va ushbu maqsadda naslli qo‘chqor va sovliqlarni eksterer ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ko‘k rangli sifatli qorako‘l qo‘ylar podasini yaratishni maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: ko‘k rang, qo‘chqor, sovliq, barra tipi, jaket, qovurg‘asimon, yassi, o‘sinqiragan, eksterer, qarchig‘ay balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak aylanasi, ko‘krak kengligi, ko‘krak chuqurligi, poycha aylanasi, qorako‘l qo‘y zoti, rang, rangbaranglik, genofond, zootexnikaviy, biologik, statistik, proporsionallik.

Аннотация. В статье изучаются экстерьерные показатели баранов и овец серой окраски разных смушковых типов и ставится цель усовершенствовать селекционно-племенную работу в структуре стада, рассчитать внешние размеры при отборе племенных баранов и на основе этой информации отбирать племенных баранов и улучшать структуру стада, а также повышать качество получаемого от них потомства на основе изучения зависимости внешних экстерьерных показателей разных смушковых типов. В последние годы сокращение численности каракульской породы овец требует проведения селекционно-племенной работы с ними в направлении развития внешних показателей, и с этой целью мы поставили перед собой цель изучить внешние показатели племенных баранов и овец и создать стадо высококачественных серых каракульских овец.

Ключевые слова: серая окраска, баран-производитель, овцематка, смушковый тип, жакет, ребристая, плоская, перерослый, экстерьер, высота в холке, кося длина туловища, обхват груди, ширина груди, глубина груди, обхват пясти, каракульская порода овец, окраска, расцветка, генофонд, зоотехнический, биологический, статистический, пропорциональность.

Abstract. The article explores the Exeter indicators of various barra-type Brown Rams and owls, focusing on improving selection-breeding work in herd structure, calculating the extrader sizes when selecting breeding Rams, and improving herd composition and improving the quality of offspring derived from them based on the study of different barra-type Owls dependent on barra types. In recent years, the shrinkage of the sheep of the karakul breed makes it necessary to carry out selection and breeding work with them in the direction of the development of extraterrestrial displays, and for this purpose we aimed at studying breeding Rams and owls with extraterrestrial displays and creating a herd of Brown-quality Karakul Sheep.

Keywords: blue color, ram, ewe, lamb type, jacket, ribbed, flat, stunted, conformation, height at withers, oblique body length, chest girth, chest width, chest depth, cannon bone girth, Karakul sheep breed, color, color variability, gene pool, zootechnical, biological, statistical, proportionality.

Kirish. Qorako‘l qo‘y zotining vatani hisoblangan O‘zbekiston qorako‘l qo‘ylarining boy genofondi, yetishtiriladigan qorako‘l terilarining gul xillari, rang va rangbarangliklarining xilma-xilligi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi. Turli barra tipidagi ko‘k rangli qo‘chqor va sovliqlarning eksterer ko‘rsatgichlari o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Quyida zootexniya faninig korifeylari I.N.Kuleshov va M.F.Ivanovlarning qishloq xo‘jalik hayvonlarining tana o‘lchamlari bo‘yicha bildirgan fikrlarini keltiramiz.

«Professor P.N. Kuleshov [2] shunday deb yozgan edi:» Zamonaviy amaliyotchi chorvador va olim zootexnik nafaqat uy hayvonlarining tashqi ko‘rinishi bilan yaqindan tanish bo‘lishi, balki ular yetishtirayotgan zotlarning standart shakllarini ham aniq tasavvur qilishi kerak. Bundan tashqari, taniqli nemis uy hayvonlari anatomiyasi professori Disselgorst «Eksteryer haqidagi ta‘lim butun zootexnik ta‘limning asosini tashkil etadi» deb yozgan eksteryer haqidagi ta‘limotning ahamiyatini e‘tirof etadi.

F. Ivanov [3] yozishicha, zamonaviy zootexniya hayvonlari baholashda tashqi ko‘rinishni hal qiluvchi deb hisoblamasdan, unga boshqa omillar bilan bir qatorda muhim ahamiyat beradi.

M.F. Ivanov [3] shunday deb yozgan edi: «Tajribamizga ko‘ra, agar hayvon go‘zal kelib chiqishi bo‘lsa-da, lekin ayni paytda uning mahsuldorligi nuqtai nazaridan juda yomon tashqi ko‘rinishga ega bo‘lsa, bunday hayvon odatda yomon bo‘ladi. Xuddi shunday, agar qo‘y ko‘p sut bersa, lekin tashqi tomondan yomon bo‘lsa, u naslchilik nuqtai nazaridan unchalik katta ahamiyatga ega emas».

Tadqiqot obyektlari sifatida ko‘k rangdagi aslzot qorako‘l qo‘chqorlari va sovliqlarining eksterer ko‘rsatgichlari o‘rganildi.

Tadqiqot maqsadi. Seleksiya-naslchilik ishlarini yuritishda ko‘k rangli qorako‘l qo‘chqor va sovliqlarining eksterer ko‘rsatgichlariga qarab tanlash va saralash mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va tadqiqot maqsadi hisoblanadi.

Materiallar va usullar. Tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani G‘uzor qorako‘lchilik shirkat xo‘jaligi sharoitida bajarilgan. Eksperimental tadqiqotlar umum qabul qilingan zootexnikaviy, biologik va statistik usullardan foydalangan holda amalga oshirildi (Плохинский Н.А.[4]). Tashqi ko‘rinish o‘lchamlarini baholash uchun dastlab vizual tarzda tasvirlangan, so‘ngra tana eksterer o‘lchovlari asosida instrumental tarzda hisoblandi (N.A.Kravchenko, [1]).

Natijalar va munozara. Turli barra tipidagi qo‘chqor va sovliqlarning eksteryer ko‘rsatgichlari turli mahsuldorlik yo‘nalishiga mansub hayvonlarda rivojlanganlik darajasi, ya‘ni tana eksterer ko‘rsatgichlari bo‘yicha farqlanishlar kuzatiladi. Bunday xususiyatlar hayvonlarning individual rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini ifodalaydi.

Turli barra tipiga mansub ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylarning eksteryeri tana tuzilish ko‘rsatgichlarini aniqlash natijalarida S.Yu. Yusupov[5] xulosalari bo‘yicha, ular turli konstitutsiya tiplariga mansub hayvonlar orasida aniq farqlanishlarni kuzatishgan va seleksiya ishlarida bularni inobatga olishni taklif qilgan.

Qo‘zilar eksteryer o‘lchamlarining o‘shishi, bir-biriga nisbiy jihatdan rivojlanish bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ularda voyaga yetgunga qadar ma‘lum eksteryer o‘lchamlari o‘shishining jadallashishi yoki sekinlashishi hisobiga zotga xos bo‘lgan proporsional rivojlanish ko‘rsatgichlariga ega bo‘ladi va keyingi davrlarda turli sharoit ta‘sirida proporsionallik o‘zgarimasdan ularning barcha tana o‘lchamlari bir tekis o‘shish ko‘rsatgichlari bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotlar davomida turli barra tipiga mansub qo‘chqorlar tana o‘lchamlarining xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishida izlanishlar olib borildi. Olingan natijalar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, turli barra tipidagi qo‘chqorlarning eksteryer ko‘rsatgichlari o‘rtasidagi tana o‘lchamlari bo‘yicha farq bor ekan. Jumladan, qarchig‘ay balandligi ko‘rsatgichi bo‘yicha eng yuqori jaket barra tipidagi


qo‘chqorlarga to‘g‘ri kelgan (68,51±0,24), bu ko‘rsatkich bo‘yicha qovurg‘asimon barra tipli eng past darajada (66,74±0,14) va yassi tiplilar oraliq o‘rinni egallagani aniqlandi (67,91±0,18).

1-jadval

Turli barra tipidagi qo‘chqorlarning eksteryer ko‘rsatkichlari. n=10 bosh.

Eksteryer o‘lchamlari, sm (X±Sx)	Qo‘chqorlarning barra tiplari		
	Jaket	Qovurg‘asimon	Yassi
Qarchig‘ay balandligi	68,51±0,24	66,74±0,14	67,91±0,18
Gavdaning qiya uzunligi	66,34±0,19	62,48±0,21	69,49±0,20
Ko‘krak aylanasi	83,74±0,18	81,11±0,19	26,13±0,06
Ko‘krak kengligi	26,38±0,09	25,11±0,05	85,11±0,20
Ko‘krak chuqurligi	38,46±0,08	40,26±0,08	36,26±0,09
Poycha aylanasi	10,51±0,02	9,01±0,03	12,04±0,04

Ko‘krak kengligi ko‘rsatkichi bo‘yicha ham deyarli shunday ma‘lumotlarga ega bo‘ldik. Gavdaning qiya uzunligi va ko‘krak aylanasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha yassi barra tipli qo‘chqorlar ustun ekanligi, qovurg‘asimon tiplilar past darajani va jaket tipidagilar oraliq o‘rinda ekanligi qayd etildi. Ko‘krak kengligi bo‘yicha deyarli farq kuzatilmadi. Ko‘krak chuqurligi bo‘yicha aksincha, yassi tiplilar ustun bo‘ldi, o‘z navbatida jaket va oxirgi o‘rinda yassi tipiga to‘g‘ri keldi. Poycha aylanasi ko‘rsatkichi ham asosiy eksteryer ko‘rsatkichlaridan hisoblanib, hayvonlarning boshqa ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib bizning tajribamizda yassi barra tiplilar ustunligi namoyon bo‘ldi, qovurg‘asimon tipi oxirgi o‘rinni, jaket tipi esa oraliq o‘rinni egalladi.



1-rasm. Turli barra tipidagi 2,5 yoshli qo‘chqorlarning eksteryer ko‘rsatkichlari.

1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2,5 yoshga to‘lgan turli barra tipli qo‘chqorlarning tana o‘lchamlari farq qildi. Bu birinchi o‘rinda har bir barra tipida shakllangan irsiyatidan kelib chiqib tana o‘lchamlarining namoyon etilganidan dalolat berganligida kuzatildi.

Qarchig‘ay balandligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar barra tiplari o‘rtasidagi farq deyarli yo‘qligi aniqlandi. Jaket tiplilar boshqa tiplarga nisbatan biroz ustunligi kuzatildi. Masalan, qovurg‘asimonga nisbatan ustunlik o‘rtacha 1,77 sm. ga, yassilarga nisbatan hammasi bo‘lib 0,6 sm.ni tashkil qildi xolos.

Gavdaning qiya uzunligi va ko‘krak aylanasi bo‘yicha tana o‘lchamlari koeffitsiyentlarini tahlil qilganimizda yassi barra tiplilar boshqalarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi, jumladan jaketga nisbatan 3,15 va 1,37 sm. ga, qovurg‘asimonga nisbatan esa 7,01 va 4,00 sm.ga. Ko‘krak kengligi ko‘rsatkichi bo‘yicha deyarli farq kuzatilmadi.

Ko‘krak chuqurligi ko‘rsatkichi bo‘yicha qovurg‘asimon barra tipi ustunlik qilib, jaketga nisbatan 1,8 sm.ga, yassilarga nisbatan esa 3,98 sm. ga uqori ko‘rsatgichga ega bo‘ldi.

Bizning tadqiqotlarimizda poycha aylanasi ko‘rsatkichi ham e‘tiborga olindi va quyidagi natijalarga erishildi, jumladan poycha

Turli barra tipidagi sovliqlarning eksteryer ko‘rsatkichlari. n=30 bosh.

Eksteryer o‘lchamlari, sm (X±Sx)	Qo‘chqorlarning barra tiplari			
	Jaket	Qovurg‘asimon	Yassi	O‘sinqiragan
Qarchig‘ay balandligi	57,51±0,24	63,74±0,14	69,91±0,18	58,78±0,24
Gavdaning qiya uzunligi	55,34±0,19	64,48±0,21	70,49±0,20	56,54±0,19
Ko‘krak aylanasi	71,74±0,18	84,11±0,19	89,11±0,20	73,35±0,18
Ko‘krak kengligi	14,38±0,09	17,11±0,05	23,13±0,06	16,44±0,09
Ko‘krak chuqurligi	26,46±0,08	30,26±0,08	34,26±0,09	29,46±0,08
Poycha aylanasi	6,51±0,02	8,01±0,03	12,04±0,04	6,83±0,02

aylanasi bo‘yicha yassi barra tipli qo‘chqorlar jaketga nisbatan 1,53 sm.ga, qovurg‘asimonga nisbatan esa 3,03 sm.ga, yuqori ekanligi qayd etildi.

Ko‘k rangli qorako‘l qo‘ylarilarning ekstereri yoki tana tuzilishi mahsuldorlik, biologik, tana tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq, chunki organizmning ichki tuzilishi va funksional faoliyatining uning tashqi shakli bilan o‘zaro bog‘liq tarzda rivojlanishini aks ettiradi. Barcha olingan eksteryer ko‘rsatkichlari ma‘lumotlari bo‘yicha qo‘chqorlar sovliqlarga nisbatan ustunligi kuzatildi.

Shundan kelib chiqib, biz tomondan otkazilgan tadqiqotlarda turli barra tipidagi sovliqlarning tana o‘lchamlari bir biridan farq qildi (2-jadval).

balandligi bo‘yicha olingan ma‘lumotlar yassi va qovurg‘asimon (69,91±0,18 va 63,74±0,14) barra tiplari jaket va o‘sinqiragan (57,51±0,24 va 58,78±0,24) tiplarga nisbatan farq qildi


Gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak aylanasi, ko‘krak chuqurligi va poycha aylanasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilganimizda ham shu holatni kuzatdik, ya‘ni yassi barra tipining ustunligini qayd etilganligi. Ko‘plab olimlar yozgan manbaalarda o‘sinqiragan barra tipining ustun ekanligi to‘g‘risida yozilganligini kuzatamiz, bizning bergan ma‘lumotlar xo‘jalikda oxirgi yillarda yassi va qovurg‘asimon barra tipi bo‘yicha naschilik ishlarini keng ko‘lamda olib borilganligidan dalolat beradi.

Qo‘ylarning eksteryer o‘lchamlarini va ularning barra tiplari bo‘yicha dinamikasini o‘rganish yo‘nalishidagi tadqiqot natijalaridan quyidagi holatlarni kuzatish mumkin (2-rasm).

Umuman olganda ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan qonuniyat, ya‘ni embrional rivojlanish davrida sust o‘sgan eksteryer o‘lchamlarining o‘ishi postembrional davrda

jadallashishi va aksincha, embrional davrida jadal o‘sgan eksteryer o‘lchamlari o‘shishining postembrional davrda susayishi olimlar tomonidan kuzatilgan.

Shu bilan bir qatorda eksteryer o‘lchamlari va ularning dinamikasi bo‘yicha turli barra tipli qo‘ylardan olingan avlodlar ko‘rsatkichlarining bir-biridan ma‘lum darajada farqlanishi aniqlanib, barcha holatda yassi va qovurg‘asimon barra tipli sovliqlar bu ko‘rsatkich bo‘yicha ustunlik qilganligi aniqlandi.



2-rasm. Turli barra tipidagi sovliqlarning eksteryer ko‘rsatkichlari

Xulosa. O‘z izlanishlarimizda bizlar chorvachilik amaliyotida eksteryer ko‘rsatkichlarni baholash va ularning barra tiplari bilan bog‘likligini va seleksiya ishlarida ushbu ko‘rsatkichdan foydalanishni tavsiya etamiz.

ADABIYOTLAR

1. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд. Колос. 1973. –С. 191-201.
2. Кулешов П.Н. Овцеводство. М.Изд. «Новая деревня».1925. -С. 144.
3. Иванов М.Ф. О селекции каракульских овец. /Изб соч. т.2. -Москва. 1949. –С. 240.
4. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. –Москва. «Колос». 1969. -С. 255.
5. Yusupov S.Yu. Qorako‘l qo‘ylarining konstitutsiyaviy tabaqalanishi va mahsuldorligi – Toshkent, 2005. – B. 236.